

21 aprel 2026 yil  
12/25-son

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Toshkent viloyati Kambag‘allikni**  
**qisqartirish va bandlik boshqarmasi**  
**boshlig‘i**



Z.Yo‘ldashov

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasida o‘tkazilgan**  
**YIG‘ILISH BAYONI**

13-aprel 2026-yil.

Bektemir t.

**Yig‘ilish raisi:**

Z.Yo‘ldashov - Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘i.

**Yig‘ilish ishtirokchilari:**

Nurafshon, Chirchiq shaharlari, Bo‘stonliq, O‘rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Parkent, Qibray tumanlari hokimining birinchi o‘rinbosari, bandlik bo‘lim boshliqlari hamda barcha mahallalar hokim yordamchilari (ro‘yxat asosida).

**KUN TARTIBI:**

1.Hokim yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish va 2026-yilda belgilangan ustivor vazifalar.

2.Korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olishga qaratilgan ishlar hamda kelgusidagi vazifalar to‘g‘risida.

(Z.Yo‘ldashov, S.Raximov, M.Salimov, Z.Yo‘ldashov,)

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘i Z.Yo‘ldashov so‘zga chiqib, Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar ijrosi so‘zsiz ta‘minlanishi to‘g‘risida to‘xtalib yo‘nalishlar kesimida ta‘kidlab o‘tdi.

Shuningdek, kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagilarni ta‘kidlandi. hokim yordamchilarining hududlarda olib borayotgan faoliyati har tomonlama tahlil qilindi.

Jumladan, mahallalar kesimida aholi bilan ishlash, ijtimoiy-iqtisodiy holatni o‘rganish, kam ta‘minlangan va ishsiz fuqarolarni aniqlash, ularni manzilli

*qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborotlar tinglandi.*

Shu bilan birga, hokim yordamchilari tomonidan aholini tadbirkorlikka jalb qilish, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi. Ayrim hududlarda ushbu yo'nalishlarda erishilgan ijobiy natijalar qayd etildi.

Yig'ilish davomida faoliyatni tashkil etishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar ham tanqidiy ko'rib chiqildi. Xususan, ayrim mahallalarda aholi muammolarini o'z vaqtida aniqlamaslik, loyihalarni amalga oshirishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani, ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish darajasi pastligi ta'kidlandi.

Shuningdek, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, oilalar daromadini oshirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan mas'ullar axborot berdilar. Aholini kasb-hunarga o'qitish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha malaka oshirish, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan hududlarda mavjud muammolarni hal etish, ish samaradorligini oshirish va belgilangan ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar bildirildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida so'ngi yillarda mamlakatimizda muhim tashkiliy huquqiy islohatlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada,

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, mansabga sovuqqonlik bilan qarash, o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdonsizlarcha munosabatda bo'lishi oqibatida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada qasddan bajarmasligi, g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma'lumotlar va yozuvlar kiritishi, hujjatlarni qalbakilashtirishi yoki bila turib soxta hujjatlar tuzishi va taqdim etishi, pora olish, o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va o'tkazish Qonun oldida javobgarlikning muqararligi belgilab qo'yilganligini ta'kidlab o'tdi.

Ma'lumki, korrupsiya o'ziga tamagirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma'naviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun ulkan xavf tug'diradi.

Binobarin, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari Qonunning bir nechta moddalarida o'z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks choratadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Shuningdek, chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi uchun maxsus davlat organi tashkil etilib, bu boradagi davlat siyosatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart -sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyatining huquqiy asoslari, vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilashda xalqaro normalarni ilgari surgan holda xorijiy tajriba atroflicha o'rganildi. Uning eng maqbul jihatlari Prezidentning mazkur farmonida to'laqonli aks ettirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi. Ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, bu – korrupsiya illatlariga barham berishdan iboratligi tushuntirildi.

Shundan keyin boshqarmaning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi M.Salimov so'z olib, "Odob-axloq" qoidalari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiya va uning oqibatlari haqida gapirib o'tdi va bo'lim xodimlari uchun quyidagilarni tushuntirib berdi.

manfaatlar to'qnashuvi-shaxsning shaxsiy manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

manfaatlar to'qnashivuni tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma - davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari yoki kadrlar bo'linmalari;

shaxsiy manfaatdorlik-davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

yaqin qarindosh - qarindosh yoki quda tomonidan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, hamda, er-xotinning otanasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari;

aloqador shaxslar - xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar (Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi holatlari bundan mustasno).

Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari haqida ham gapirib o'tdi.

Bular, qonuniylik, fuqarolarning tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi, ochiqlik, shaffoflik, xolislik, korrupsiyaga nisbatan murosasizlikdan iboratdir.

Kun tartibidagi belgilangan masalalar yuzasidan bildirilgan fikr mulohazalarni inobatga olib yig'ilish,

### **Q A R O R Q I L A D I:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni hamda Boshqarma boshlig'i Z.Yo'ldashovning kun tartibidagi masalalar yuzasidan bergan topshiriqlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Nurafshon, Chirchiq shaharlari, Bo'stonliq, O'rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Parkent, Qibray tumanlari bandlik bo'lim boshliqlariga:

- bir hafta muddatda 2026-yil bo'yicha belgilangan rejalarni bajarishi yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rsin;

- yig'ilishdagi tanqidiy fikrlarini inobatga olib, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ijro intizomi qonun hujjatlariga rioya etish tizimini takomillashtirsin;

- barcha ishchi-xodimlar korrupsiya hamda odob-axloq, hulq-atvor qonun va qoidalari bilan takroran tanishrilsin;

- ishchi-xodimlar tomonidan korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymasliklari yuzasidan qat'iy ogohlantirish hamda kafolat xatlari olinsin;

- berilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda ijrosi ta'minlansin;

- murojaat bilan ishlashda ijro intizomini mustahkamlash, ish yuritish takomillashtirilsin, har bir murojaat bo'yicha shaxsiy ma'suliyat belgilansin.

3. Mazkur yig'ilish bayonnomasi qaror qismini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

**Bayonnoma olib boruvchi**



**M.Salimov**